

Respublika OAK jurnali

ISSN 2181-4201

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY-METODIK JURNALI

AVGUST 2026, 5-SON

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
<https://etjournal.buxdpi.uz>



BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 5

BUXORO – 2026

IMOM G‘AZZOLIY ASARLARIDA “ILM” KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV TALQINI

Barnoyeva Zarina Sayfiddinovna, BuxDU doktoranti

barnoyevazarina072@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-5631-1156>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Imom G‘azzoliy asarlarida muhim o‘rin tutgan “ilm” konseptining lingvokognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mutafakkirning “Ihyo ulum ad-din”, “Al-Munqiz min ad-dalal” va “Kimyo saodat” asarlarida ilm tushunchasining semantik, konseptual va kognitiv jihatlari o‘rganilgan. Lingvokognitiv yondashuv asosida “ilm” konseptining yadro va periferik komponentlari, metaforik modellar hamda uning diniy-falsafiy tafakkurdagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot natijalari Imom G‘azzoliy ilmni nafaqat bilish vositasi, balki insonning ma’naviy kamoloti va haqiqatga erishishining asosiy omili sifatida talqin qilganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ilm, konsept, lingvokognitiv tahlil, Imom G‘azzoliy, kognitiv tilshunoslik, ma’rifat, tafakkur, semantika.

ЛИНГВОКОГНИТИВНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ИЛМ» В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИМАМА АЛЬ-ГАЗАЛИ

Барноева Зарина Сайфиддиновна,

Докторант Бухарского государственного университета

barnoyevazarina072@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-5631-1156>

Аннотация. В статье анализируются лингвокognитивные особенности концепта «ильм», занимающего значительное место в произведениях имама аль-Газали. В исследовании рассматриваются семантические, концептуальные и когнитивные аспекты понятия «ильм», репрезентированные в произведениях мыслителя «Ихья ‘улюм ад-дин», «Аль-Мункиз мин ад-далал» и «Кимия-йи саадат». На основе лингвокognитивного подхода выявляются ядерные и периферийные компоненты концепта «ильм», рассматриваются его метафорические модели, а также определяется его роль в религиозно-философском мышлении. Результаты исследования показывают, что имам аль-Газали интерпретирует «ильм» не только как средство познания, но и как важнейший фактор духовного совершенствования человека и достижения истины.

Ключевые слова: «ильм», концепт, лингвокognитивный анализ, имам аль-Газали, когнитивная лингвистика, познание, мышление, семантика

LINGUOCOGNITIVE INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF “ILM” IN THE WORKS OF IMAM AL-GHAZALI

Barnoyeva Zarina Sayfiddinovna,

Doctoral Researcher, Bukhara State University

barnoyevazarina072@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-5631-1156>

Abstract. This article analyzes the linguocognitive characteristics of the concept of *ilm*, which occupies a significant position in the works of Imam al-Ghazali. The study examines the semantic, conceptual, and cognitive aspects of the notion of *ilm* as reflected in the thinker’s works *Ihya ‘Ulum al-Din*, *Al-Munqidh min al-Dalal*, and *Kimiya-yi Sa’adat*. Drawing on a linguocognitive approach, the study identifies the core and peripheral components of the concept of *ilm*, explores its metaphorical models, and elucidates its role in religious and philosophical thought. The findings demonstrate that Imam al-Ghazali interprets *ilm* not merely as a means of acquiring knowledge, but also as a fundamental factor in human spiritual development and the attainment of truth.

Keywords: *ilm*, concept, linguocognitive analysis, Imam al-Ghazali, cognitive linguistics, enlightenment, cognition, semantics.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda antropotsentrik paradigma shakllanib, inson tafakkuri va til o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga qaratilgan yangi yo'nalishlar yuzaga keldi. Kognitiv tilshunoslik ana shunday yo'nalishlardan biri bo'lib, unda konsept inson ongidagi bilimlarning mental modeli sifatida talqin qilinadi. V.A. Maslova ta'kidlaganidek, "konsept madaniyatning inson ongidagi aksidir va u til orqali namoyon bo'ladi" [Maslova, 2004, 36-b.]. Sharq mutafakkirlari merosida muhim o'rin tutuvchi konseptlardan biri "ilm" konseptidir. Islom sivilizatsiyasi taraqqiyotida ilm eng yuksak qadriyatlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Ayniqsa, Imom G'azzoliy ilmning mohiyati, uning inson hayotidagi o'rni va ma'naviy kamolotga ta'siri haqida chuqur ilmiy-falsafiy qarashlarni ilgari surgan. Imom G'azzoliy shunday yozadi: "Ilm ibodatlarining eng afzali va Allohga eltuvchi yo'llarning eng ulug'idir" (G'azzoliy, Ihyo ulum ad-din, I jild). Ushbu fikr ilm tushunchasining mutafakkir tafakkuridagi markaziy o'rnini yaqqol namoyon etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi Imom G'azzoliy asarlarida "ilm" konseptining lingvokognitiv talqinini ochib berish, uning semantik tuzilishi va konseptual xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Bugungi kunda diniy-falsafiy merosni zamonaviy lingvistik metodlar asosida o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Imom G'azzoliy asarlaridagi ilm konseptining kognitiv tahlili Sharq tafakkurining konseptual manzarasini aniqlashda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot obyekti: Imom G'azzoliyning "Ihyo ulum ad-din", "Al-Munqiz min ad-dalal" va "Kimyoi saodat" asarlari tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- konseptual tahlil;
- semantik tahlil;
- kontekstual tahlil;
- tavsifiy metod;
- lingvokognitiv yondashuv.

Tadqiqot materiali sifatida Imom G'azzoliyning "Ihyo ulum ad-din", "Al-Munqiz min ad-dalal", "Kimyoi saodat" asarlaridagi ilmga oid fikrlar tanlab olindi.

Kognitiv tilshunoslikda konseptning tarkibiy tuzilishi yadro va periferiya qismlaridan iborat bo'lishi e'tirof etiladi. Shu nazariy asosdan kelib chiqib, "ilm" konseptining semantik maydoni tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. "Ilm" konseptining semantik mohiyati

Arab tilidagi "ilm" so'zi "bilish", "anglash", "idrok etish" ma'nolarini bildiradi. Islomiy manbalarda esa ushbu tushuncha kengroq mazmunga ega bo'lib, ilohiy va dunyoviy bilimlarni qamrab oladi. Imom G'azzoliy ilmga quyidagicha ta'rif beradi: "Ilm narsalarni asl holicha bilishdir." Ushbu ta'rifdan ko'rinadiki, ilm konseptining markazida haqiqatni bilish g'oyasi turadi. Kognitiv jihatdan bu konseptning yadrosini "haqiqat", "idrok", "hikmat", "ma'rifat" kabi semantik komponentlar tashkil etadi. G'azzoliy fikricha, ilm insonni jaholat zulmatidan qutqaruvchi eng muhim vositadir. U shunday yozadi: "Qalb uchun ilm quyoshning olam uchun bo'lgan o'rnidadir." Mazkur fikr ilmning metaforik talqinini yuzaga chiqaradi.

"ILM – NUR" konseptual metaforasi. Kognitiv tilshunoslikda metafora tafakkurning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qoraladi. G'azzoliy asarlarida ilm ko'pincha "nur" obrazi orqali ifodalanadi. Masalan: "Ilm qalbgga tushadigan nurdir." Bu yerda NUR manba konsepti, ILM esa maqsad konsepti sifatida namoyon bo'ladi. Lingvokognitiv nuqtayi nazardan quyidagi metaforik model shakllanadi:

ILM = NUR Mazkur model quyidagi semantik belgilarni o'z ichiga oladi:

- yoritish;
- yo'l ko'rsatish;
- haqiqatni ochish;
- zulmatni yo'qotish;

- kamolotga eltish.

Demak, G‘azzoliy tafakkurida ilm oddiy axborot emas, balki ruhiy-ma’naviy nur sifatida idrok etiladi.

“Ilm” konseptining freym tuzilishi

Kognitiv nazariyaga ko‘ra, har bir konsept muayyan freym yoki bilim modeli asosida tashkil topadi. Imom G‘azzoliy asarlarida “ilm” konsepti quyidagi freym elementlarini qamrab oladi:

Subyekt -- Ilm oluvchi inson.

Manba -- Qur‘on, hadis, ustoz, tajriba.

Maqsad -- Haqiqatni anglash va Allohga yaqinlashish.

Natija -- Kamolot, hikmat, taqvo.

To‘siq -- Jaholat, kibr, nafs.

Bu model ilm konseptining diniy va axloqiy xarakterini ko‘rsatadi.

Ilm va amal birligi. Imom G‘azzoliy ilmni amaldan ajratib bo‘lmaydigan hodisa sifatida talqin qiladi. U shunday deydi: “Amalsiz ilm – mevasiz daraxtdir.” Mazkur iqtibos konseptning muhim kognitiv belgilaridan birini ifodalaydi. Mutafakkirning fikricha, ilmning haqiqiy qadri uning amaliy natijasida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun “ilm” konsepti “amal”, “axloq”, “taqvo” konseptlari bilan uzviy bog‘langan.

Quyidagi konseptual zanjir hosil bo‘ladi:

ILM → AMAL → KAMOLOT → SAODAT

Bu model G‘azzoliy tafakkurida ilmning pragmatik vazifasini ko‘rsatadi.

“Ilm” konseptining yadro va periferik zonalari

Tahlillar natijasida konseptning quyidagi tuzilishi aniqlandi.

	Yadro komponentlari	Periferik komponentlar
	Haqiqat	Kitob
	Ma’rifat	Ustoz
	Hikmat	Ta’lim
	Idrok	Tajriba
	Nur	Munozara
		Amal

Yadro qism konseptning asosiy mazmunini tashkil etsa, periferik qism uning voqelanish vositalarini ifodalaydi.

G‘azzoliy qarashlarining zamonaviy kognitiv talqini

Zamonaviy kognitiv tilshunoslik konseptlarni insonning dunyo haqidagi bilimlari tizimi sifatida talqin qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, G‘azzoliy asarlaridagi ilm konsepti nafaqat bilish kategoriyasi, balki ma’naviy qadriyat sifatida ham namoyon bo‘ladi. Sh. Safarovning ta’kidlashicha, konsept “insonning tajribasi va bilimlari asosida shakllanuvchi mental birlikdir” [Safarov, 2006, 52-b.]. Mazkur ta’rif G‘azzoliy asarlaridagi ilm konseptiga ham to‘liq mos keladi. Chunki mutafakkir ilmni insonning ruhiy va intellektual tajribasini birlashtiruvchi universal hodisa sifatida ko‘rsatadi.

ILMIY YANGILIK

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi Imom G‘azzoliy asarlarida muhim konseptual birlik sifatida namoyon bo‘luvchi “ilm” konseptining lingvokognitiv xususiyatlarini tizimli ravishda

aniqlash va uning mazmuniy strukturasini til hamda tafakkur munosabati asosida yoritish bilan belgilanadi. Tadqiqotda “ilm” konsepti faqat bilim yoki ma’lumotni ifodalovchi leksik birlik sifatida emas, balki insonning borliqni anglash, haqiqatni izlash, o’zligini idrok etish va ma’naviy kamolotga erishish jarayonlarini mujassamlashtiruvchi murakkab mental tuzilma sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan “ilm” konseptining mazmuniy doirasi G’azzoliy dunyoqarashidagi bilish, anglash, tafakkur, ma’rifat, haqiqat, qalb, aql, amal, hidoyat va saodat kabi tushunchalar bilan uzviy aloqadorligi asosida ochib beriladi.

Tadqiqotning yangiligi, avvalo, G’azzoliy matnlarida “ilm” konseptining yadro va periferik mazmuniy komponentlarini aniqlashda namoyon bo’ladi. Konseptning yadrosini bilim, anglash, haqiqat va idrok kabi semantik birliklar tashkil etishi, periferik qatlamida esa ma’rifat, tafakkur, amal, taqvo, hidoyat, ruhiy poklanish va saodat kabi tushunchalar shakllanishi asoslanadi. [Safarov, 2006, 74-b.]. Bunday strukturaviy yondashuv “ilm”ning G’azzoliy tafakkurida oddiy epistemologik kategoriya emas, balki insonning intellektual va ma’naviy mavjudligini belgilovchi ko’p qatlamli konsept ekanini ko’rsatishga imkon beradi.

Tadqiqotda “ilm” konseptining metaforik va obrazli ifodalanishi ham lingvokognitiv jihatdan yoritiladi. Xususan, G’azzoliy qarashlarida ilmning nur, yo’l, hidoyat va ma’naviy oziqa sifatida konseptuallashtirilishi aniqlanadi. “Ilm — nur” modeli orqali bilim inson tafakkurini yorituvchi, jaholatni bartaraf etuvchi va haqiqatni ko’rish imkonini beruvchi vosita sifatida namoyon bo’ladi. “Ilm — yo’l” modeli esa bilimni insonni adashishdan xalos etib, haqiqat va kamolot sari yetaklovchi jarayon sifatida konseptuallashtiradi. Mazkur metaforik modellar orqali abstrakt epistemologik mazmunning inson tajribasiga yaqin bo’lgan obrazlar yordamida ifodalanishi G’azzoliy tilining kognitiv xususiyatlarini ochib beradi. Tadqiqotning yana bir ilmiy yangiligi “ilm” konseptining “aql” va “qalb” konseptlari bilan munosabatini lingvokognitiv asosda aniqlashdan iborat. G’azzoliy tafakkurida ilm faqat aqliy faoliyat mahsuli sifatida emas, balki qalbning ma’naviy holati bilan chambarchas bog’liq bo’lgan hodisa sifatida talqin qilinadi. Natijada ilmning haqiqiy qiymati uning insonning ichki dunyosiga ta’siri, xulq-atvorini o’zgartirishi va amaliy faoliyatida namoyon bo’lishi bilan belgilanadi. Shu asosda “ilm — anglash — qalb — amal — kamolot” tarzidagi konseptual bog’lanish G’azzoliy asarlaridagi bilim konsepsiyasining o’ziga xos kognitiv modelini tashkil etishi asoslanadi. Shuningdek, tadqiqotda “ilm” va “jaholat”, “haqiqat” va “zalolat”, “nur” va “zulmat” kabi semantik-kognitiv oppozitsiyalarning konseptual mazmunni shakllantirishdagi roli aniqlanadi. Mazkur qarama-qarshiliklar G’azzoliy matnlarida insonning bilish holatini, uning haqiqatga yaqinlashishi yoki undan uzoqlashishini ifodalovchi kognitiv mexanizmlar sifatida namoyon bo’ladi. Shu tariqa “ilm” konsepti individual bilimni ifodalash doirasidan chiqib, insonning dunyoqarashi, axloqiy pozitsiyasi va ma’naviy yo’nalishini belgilovchi asosiy konseptual birlik darajasiga ko’tariladi. Umuman olganda, tadqiqotning ilmiy yangiligi Imom G’azzoliy asarlaridagi “ilm” konseptining semantik, konseptual, metaforik va kognitiv xususiyatlarini yaxlit tizimda ochib berish, uning yadro va periferik komponentlarini aniqlash hamda mazkur konseptning “haqiqat”, “ma’rifat”, “aql”, “qalb”, “amal”, “hidoyat” va “saodat” konseptlari bilan uzviy kognitiv-semantik munosabatlarini asoslashdan iborat. Mazkur natijalar G’azzoliy merosini nafaqat falsafiy va diniy, balki zamonaviy kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham tadqiq etish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari Imom G’azzoliy asarlarida “ilm” konsepti murakkab lingvokognitiv tuzilishga ega ekanligini ko’rsatdi. Birinchidan, ilm konseptining yadrosini haqiqat, hikmat, ma’rifat va nur kabi semantik komponentlar tashkil etadi. Ikkinchidan, mutafakkir asarlarida ilm “nur” metaforasi orqali konseptuallashtiriladi va bu uning ma’naviy mohiyatini ochib beradi. Uchinchidan, G’azzoliy ilmni faqat nazariy bilim emas, balki insonni kamolotga eltuvchi amaliy kuch sifatida talqin qiladi. To’rtinchidan, “ilm” konsepti “amal”, “taqvo”, “axloq”, “hikmat” kabi boshqa konseptlar bilan o’zaro bog’liq holda faoliyat ko’rsatadi. Shunday qilib, Imom G’azzoliy asarlaridagi “ilm” konsepti Sharq tafakkurining muhim konseptlaridan biri bo’lib, uning lingvokognitiv tahlili til, tafakkur va madaniyat o’rtasidagi munosabatlarni chuqurroq anglash

imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Al-G‘azzoliy. Ihyo ulum ad-din. – Bayrut: Dar al-Ma’rifa, 2005.
2. Al-G‘azzoliy. Al-Munqiz min ad-dalal. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2004.
3. Al-G‘azzoliy. Kimyoi saodat. – Tehron: Intishoroti ilmiy, 2010.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Sangzor, 2006.
5. Maslova V.A. Kognitivnaya lingvistika. – Moskva: Akademiya, 2004.
6. Kubryakova E.S. Yazyk i znaniye. – Moskva: Yazyki slavyanskoy kulturi, 2004.
7. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab. – Toshkent: Fan, 2012.
8. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2012.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING INDIVIDUAL JISMONIY YUKLAMALARINI OPTIMALLASHTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH Mansurov Olimjon Odil o'g'li	4
CHUQURLASHTIRILGAN IXTISOSLIK BOSQICHIDA UZOQ MASOFAGA YUGURUVCHILARNING MASHG'ULOT JARAYONINI BOSHQARISH MUAMMOLARI Sirojev Shoxrux Fayzullo o'g'li	11
CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM DIDAKTIKASIDA TARBIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI Bozorov Aziz Abloqulovich	16
DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TASVIRIY SAN'AT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI Bozorova Hamida Shukrilloevna	23
CHIZMACHILIK FANINI SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANIB O'QITISHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI Omonova Rayxon	26
JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA REGBI ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH ORQALI TALABALARNING HARAKAT KOORDINATSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI E.E. Jumayev	31
JISMONIY MADANIYAT YO'NALISHI TALABALARIGA KURASH TEXNIK HARAKATLARINI O'RGATISHNING UYG'UNLASHTIRILGAN METODIK MODEL G'ulomov Nasillo Baxshullo o'g'li	34
BO'LAJAK PEDAGOGLARDA HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI VA INDIKATORLARI Mirzayev Toxirjon Turg'unovich	43
ISSIQ IQLIMDA MASHG'ULOT YUKLAMASINI RPE VA YURAK URISH CHASTOTASI YORDAMIDA BAHOLASH I.I. Saidov	55
IMOM ABU HOMID G'AZZOLIY QARASHLARI ASOSIDA FARZAND TARBIYASINING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARINI TADQIQ ETISH Isoqova Gulnoz Ulug'bek qizi	61
RAQAMLI MONITORING VOSITALARI ORQALI YOSH KURASHCHILAR YUKLAMASINI OPTIMALLASHTIRISH Karim Mahramov	67

TALABALARNING REFLEKSIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI Jumayeva Azizabonu Mo'min qizi	74
IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHGA DOIR TAJRIBALAR Kattaqulova Nozbibi Shokir qizi	82
MINIATYURA SAN'ATIDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TASVIRIY VOSITALARNING UYG'UNLIGI Nozimova Muhabbat Akram qizi	85
DIGITAL TECHNOLOGY FOR L2 LISTENING DEVELOPMENT: CALL, MALL, CAPTIONS, VR, AND AI Juraboeva Nigina Olimjon kizi	95
ISSIQ IQLIM SHAROITIDA GIDRATATSIYA TARTIBINING YOSH YENGIL ATLETIKACHILARNING FUNKSIONAL HOLATI VA JISMONIY ISH QOBILIYATIGA TA'SIRI Nuriddinov Axrorjon Bahodir o'g'li	99
GANDBOLCHI TALABA QIZLARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHDA BOSQICHMA-BOSQICH YUKLAMA BERISH METODIKASI Dilnoza I. Yarasheva	105
OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA BOSQON ULOQTIRISH TEXNIKASINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK VA METODIK ASOSLARI Sarvinoz Iskandar qizi	111
GIMNASTIKA VOSITALARI ORQALI BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI Saidova Mahbuba Ayubovna	118
BOSHLANG'ICH TAYYORLOV GURUHIDAGI SPORT GIMNASTIKACHILARDA MOSLASHUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING SAMARADORLIGI Sayfiyev Hikmatullo Xayrulloevich	127
THE APPLICATION OF THE PEDAGOGICAL CONCEPT OF JADID SCHOOLS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna	134
MULTIMEDIA VOSITALARI ASOSIDA TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI Toshova To'ygul Amin qizi	141
INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING HAYOTIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI Urunova Dilafro'z Muzafarovna	145
МАКТАБ КЛАСТЕРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН, КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ВА РЕСУРСЛАРГА АСОСЛАНГАН ЁНДАШУВЛАР Максуда Умаровна Бадалова	153
ЭВОЛЮЦИЯ ПОНЯТИЯ «КОММУНИКАТИВНАЯ	158

КОМПЕТЕНЦИЯ» В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ: ОТ ЯЗЫКОВОГО ЗНАНИЯ К ИНТЕГРАТИВНОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ХАРАКТЕРИСТИКЕ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ Нуруллаева Гузал Анваровна	
FILOLOGIYA FANLARI	
ОТ ПЕРЕЖИВАНИЯ К СМЫСЛУ: АВТОРСКАЯ МЕТОДИКА ИНТЕРПРЕТАЦИОННОГО ОСВОЕНИЯ ПОЭЗИИ А. АХМАТОВОЙ В ПРОЦЕССЕ ЯЗЫКОВОГО И ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ Жабборова Гулчехра Жобировна	168
NUTQIY AKTNI TADQIQ ETISHNING LINGVOPRAGMATIK VA ANTROPOSENTRIK MEZONLARI Akramova Surayo Renatovna	174
TILNI O'RGANISH JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING KALIT JIHATLARI VA UNDA SAMARALI FOYDALANISH STRATEGIYALARI: RAQAMLI DAVR TILSHUNOSLIGINING YANGI UfqLARI Boymurodova Nishona Yunus qizi	178
IMOM G'AZZOLIY ASARLARIDA "ILM" KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV TALQINI Barnoyeva Zarina Sayfiddinovna	184
ПУТЬ К СМЫСЛУ ЧЕРЕЗ СИМВОЛ: АВТОРСКАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ТВОРЧЕСТВА А. БЛОКА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ Жабборова Гулчехра Жобировна	189
INGLIZ XALQ ERTAKLARI LINGVOMADANIY-DIDAKTIK MIKROKORPUSINI SHAKLLANTIRISH: TANLASH MEZONLARI VA ANNOTATSIYA MODELI Djabbarova Feruza Azamovna	194
JOMIY VA NAVOIY IDIOSTILIDA "LA'L" KONSEPTI VA UNING METAFORIK XUSUSIYATLARI Tavakkal Choriyev	200
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV TOPSHIRIQLARNING TALABALAR KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI Shabonova Shaxnoza Baxriddinovna	213
ANIQ VA TABIIY FANLAR	
BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR Hamdamova Nozima Mukimovna	218
GRAFIK SAVODXONLIKNI BAHOLASHDA ANIMATSION DIAGNOSTIKA VOSITALAR Xo'janiyozov Shokir Rustamovich	225